

**QADIMGI XITOY SOLNOMALARIDA VATANIMIZ
TARIXI HAQIDA MA’LUMOTLAR**

Ahmedshina Faniya Avzalovna

Jizzax davlat pedagogika universiteti professori, tarix fanlari doktori

Ravshanov O’tkirjon Rahmat o’g’li

Jizzax davlat pedagogika universiteti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Vatanimiz tarixida faoliyat ko’rsatgan ayrim xalqlar, ularning turmush-tarzi, mashg’ulotlari, davlatlar va shaharlari haqida Xitoy solnomalari ma’lumotlari tahlili keltirib o’tilgan. Mavjud Xitoy manbalari tahlili asosida ajdodlarimizning qadim tarixi xususida atroficha bo’lsada, qimmatli ma’lumotlar berib o’tishga harakat qilindi.

Kalit so’zlar: Sima Syan, “Tarixiy esdaliklar”, Ban Gu, “Syan Xan shu”, Fan Xua, Li Yan-Shou, “Shimoliy sulolalar tarixi”, “Suy xonardonining tarixi”, Shen Bin-Chjen, Sin Tan shu, “qon bilan terlaydigan” uchqur otlar.

Jahon xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti mislsiz darajada rivojlanib, globallashuv jarayonlari tobora kengayib borayotgan hozirgi davrda insoniyatni kelgusi hayoti, ayniqsa, jahon sivilizatsiyasining taqdiri va barqarorligi ulug’ ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan beba ho tarixiy qadriyatlaming keng ko’lamda o’rganish va targ‘ib qilish bilan bevosita bog‘liqidir.

Markaziy Osiyo mintaqasida yashayotgan etnoslarning o‘zaro do’stlik rishtalarining azaliyligi va har qanday xalqning tarixi hamda madaniyati qo’shni qardosh xalq tarixi hamda madaniyati bilan uzviy bog‘liq ekanligini aniq dalillar asosida yoritib berish bugungi kunning dolzarb masalalardan biriga aylandi.

Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, Vatanimiz tarixi, undagi yashagan elatlarning asrlar davomida turli qabilalar, davlatlar bosqini natijasida tanazzuli, keyinchalik taraqqiyot jarayonlari mahalliy qadimshunoslar bilan bir qatorda chet el tarixchilarining nodir qo’lyozmalar, manbalari ma’lumotlarida atroficha yoritib berilgan. Yuqorida fikrlardan kelib chiqib, Markaziy Osiyoda yashab, o’z faoliyatini amalga oshirgan qadimgi ajdodlarimiz va ularning faoliyati haqida qimmatli ma’lumotlarni olish uchun ushbu maqola orqali Xitoy solnomalariga to’xtalamiz.

Xitoy manbalari haqida so’z boshlashdan oldin shuni alohida qayd etib o’tish kerakki, ular ham xitoy hukmdorlarining maqsad va manfaatlarini ko’zlab yozilgan, Xitoy imperatorlari ko’kka ko’tarib maqtalgan, ilohiyashtirilgan; boshqa xalqlarning tarixi esa ko’p hollarda bir taraflama yoritilgan. Lekin Xitoy manbalarida bo’lib o’tgan voqealarning vaqt va o’rni aniq ko’rsatiladi, u yoki bu hududda istiqomat qilgan

xalqlar, shuningdek, bir-biriga qarshi turgan qo'shinchilarning umumiyligi soni aniq ko'rsatiladi.

O'rta Osiyo, xususan qadimiy O'zbekistonning uzoq o'tmishdagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o'rganishda quyidagi xitoy manbalari muhimdir. Dastlab fikr yuritmoqchi bo'lган shaxs Sima Syan bo'lib, u Xitoy tarixshunoslarining «otasi» hisoblanadi. Sima Syan hukumat bilan bog'liq og'ir qiyinchiliklar, tushunmovchiliklar va jazolarga qaramasdan o'z irodasini namoyon etadi hamda ushbu mashaqqatli yo'lni bosib o'tadi[Ahmedov B. 59-61 b.].

Sima Syan faoliyati davomida «Shi Szi» («Tarixiy esdaliklar») nomli 130 bobdan iborat yirik tarixiy asar yozib qoldirgan. Asar Xitoyning qadimiy zamonlardan to miloddan avvalgi I asr boshlariga qadar o'tgan tarixini o'z ichiga oladi. Shuningdek, asarda O'rta Osiyo, uning 123 bobida xususan Farg'on va uning qadimiy xalqi, hayoti haqida qimmatli ma'lumotlar mavjud [www.wikipedia.uz. internet sayti]. Ma'lumotlarda Davan davlati uning mohir kamonboz bo'lганligi, ulardagi samoviy otlar, aholining dehqonchilik ayniqsa, bog'dorchilikda mohir bo'lганligi haqida ma'lumotlar uchraydi. «Shi Szi» ning to'la matni olti jild qilib, 1959 yili, Pekinda chop etilgan. Ushbu manba keyinchalik, boshqa tillarga, xususan rus, fransuz tillariga ham tarjima qilingan.

Ban Gu – yirik Xitoy tarixchi olimi Anlin (Shensi viloyati) shahrida yirik mansabdor va tarixshunos oilasida tug'ilgan. U 58-82-yillari o'zining «Syan Xan shu» («Avvalgi Xan sulolasining tarixi») asarini yozgan. Ushbu asarda, xususan uning 95-bobida, O'rta Osiyo (ayniqsa, qang'li, yuechji va usunlar haqida) va Sharqiy Turkistonning qadimiy tarixi, xalqi va uning hayoti haqida ko'p muhim ma'lumotlarni uchratamiz[Doniyorov A.X., va .b. 164-165 b.].

Ban Guning «Avvalgi Xan sulolasining tarixi» asarida antik davrda Vatanimiz tarixida faoliyat ko'rsatga Qang', Davan davlatlari ularning aholisi, etnik tarixi haqida atroflicha, mashg'ulotlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. «Syan Xan shu» 1962-yili Pekinda 12 jildda nashr qilingan va uning inglizcha tarjimasi ham mavjud[Madraimov A., Fuzailova G. 136-137 b.].

Navbatdagi tarixchi Fan Xua bo'lib, u Xitoyda bir qancha yuqori mansablarda faoliyat ko'rsatgan va keyinchalik taqdiri ayanchli tugagan. Fan Xua Xitoyning “Avvalgi Xan sulolasi” davridagi tarixini o'z ichiga olgan «Xou Xan shu» («Keyingi Xan sulolasi tarixi») nomli katta asar yozgan. Bu asar 130 bobdan iborat bo'lib, asarda O'rta Osiyo, Sharqiy Turkiston va Jung'oriyaning 25-221-yillar orasidagi tarixi haqida diqqatga sazovor ma'lumotlar bor [Arslonzoda R. A. 70-74 b.].

Yana bir Xitoy muarixi Li Yan-Shou - Tan sulolasi davrida faoliyat ko'rsatgan yirik tarixchi. U Shimoliy Xitoyda hukmronlik qilgan Vey, Si, Chjou sulolasi hukmronligi, ya'ni 386-581-yillardagi tarixini o'z ichiga olgan 100 bobdan iborat «Bey shu» («Shimoliy sulolalar tarixi») nomli asari bilan mashhur. Asarda O'rta Osiyo,

xususan Xorazm hamda Sharqiy Turkiston haqida qimmatli ma'lumotlar uchratamiz. «Bey shu»ning matni 1958-yili Shanxayda chop etilgan.

Tan sulolasasi davrida o'tgan yana bir tarixchi Vey Chjen imperator davrida tarixchi olimlardan Yan Shi-Gu hamda Kxun Inda bilan birgalikda Xitoyning Suy sulolasasi davridagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o'z ichiga olgan «Suy shu» («Suy xonadonining tarixi») nomli 85 bobdan iborat asar yozib qoldirgan [www.wikipedia.uz. internet sayti].

Asarning 55-bobi 637-yilda yozib tamomlangan. Qolgan 30 bobiga esa yana 20 yil vaqt ketgan. Asar Xitoyning V-VI asrlardagi tarixini o'z ichiga oladi. «Suy shu» Xitoyda tarixchilar jamoasi tarafidan yozilgan birinchi tarixiy asar hisoblanadi. Boshqa asarlardan farqli o'laroq, unda imperatorlarning iqtisodiy siyosati, qo'shining tuzilishi, mamlakatning ahvoli, xalqning urf-odatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Qiziqarli jihatlardan biri sifatida asarning 83-bobida, O'rta Osiyo (Janubiy Qirg'iziston, Pomir, Toshkent va b.) hamda Sharqiy Turkiston (Xarashahar, Kucha, Koshg'ar, Xo'tan) haqida ham diqqatga sazovor ma'lumotlar uchratamiz [Madraimov A., Fuzailova G. 138 b.].

Vatanimiz tarixi bo'yicha qimmatli ma'lumotlar beruvchi navbatdagi asarlar «Tan sulolasining eski tarixi», «Tan sulolasining yangi tarixi» nomli manbalardir. Asar mualliflari Ouyan Syu va Sun Si bo'lib, har ikkala asar ham o'ziga xos afzalliklarga ega bo'lib, ma'lum darajada bir-birini to'ldiradi. XVIII asrda tarixchi Shen Bin-Chjen har ikkala tarixni bir-biriga bog'lab, unga «Sin szyu Tan shu xechao» («Tan sulolasining bir-biri bilan qo'shilgan yangi hamda eski tarixi») deb nom qo'ydi [Madraimov A., Fuzailova G. 138-139 b.]. Asarda 618-907-yillar voqealari bayon etilgan.

«Sin Tan shu» asarida Samarqand, hozirgi O'zbekistonning janubiy viloyatlari, Eron, Afg'oniston hamda Sharqiy Turkiston (Xarashahar, Kucha, Koshg'ar) haqida ma'lumotlar uchraydi. Ma'lumki, Tan sulolasasi davrida Xitoy bilan mamlakatimiz tarixida o'sha paytda faoliyat ko'rsatgan davlatlar bilan yaxshgina aloqalar qo'yilgan. Ayni shu aloqalar, savdo munosabatlari, Buyuk Ipak yo'lining ahamiyatli jihatlari, savdoda so'gdilik savdogarlarning o'rni yuqorida keltirilgan manbada atroflicha yoritib berilgan [Sa'dullayev A. S. 46-51 b.]. Ushbu nodir yozma yodgorlik 1958-yili (ko'p jildli «Sulolalar tarixi»ning 12-jildi) Shanxayda chop etilgan.

Yuqorida sanab o'tilgan barcha xronikalarda O'rta Osiyo tarixiga oid ma'lumotlar bor. Masalan, "Szinszu"da Day-Yuan (Farg'ona) davlatining tabiiy sharoitlari va xo'jaligi haqida ma'lumotlar beriladi. Bu ma'lumotlar "Shiji" yilnomasidagi ma'lumotlar bilan deyarli bir xil [Arslonzoda R. A. 73-74 b.]. "Szinszu" muallifining yozishicha, xitoy imperatori 285-yilda Farg'ona podshosi Lamshieu huzuriga Yang Xiao ismli elchini yuborib, unga o'z hurmatini bildiradi. Elchi podshoga imperator uni Farg'ona hukmdori sifatida e'tirof etishini ma'lum qiladi. Lamshieu vafot etgandan

so‘ng, taxtga uning o‘g‘li Muaziye o‘tiradi. U Xitoyga o‘z elchilarini yuboradi. Elchilar imperatorga Farg‘onaning “qon bilan terlaydigan” uchqur otlarini sovg‘a qilishadi[Xo’jayev A. 77-78 b.].

Xulosa o‘rnida aytadigan bo‘sak, tarixiy manbalar – bu turli davrlarda yaratilgan madaniyat namunalari bo‘lib, ular insoniyat to‘plagan bilim va tarixiy tajribani o‘zida mujassam etadi. Tarixchi yoki boshqa gumanitar fan vakili o‘z fani uchun muhim bo‘lgan manbalarni izlab, ulardan o‘zini qiziqtirgan savollarga javob topadi. Manba bilan ishslash jarayonida tadqiqotchi unda saqlangan ajdodlar ovozini eshita olishi, qo‘lga kiritgan ma’lumotlarni fan va madaniyatning hozirgi darajasida idrok eta olishi kerak. Shu jihatdan biz ham mavjud Xitoy manbalari tahlili asosida Vatanimiz tarixida faoliyat ko‘rsatgan ajdodlarimiz, ushbu madaniy o‘lkalardagi ayrim davlatlar, shaharlar, xalqlar, ularning turmush-tarzi, mashg‘uloti va o‘ziga xos tarixi xususida atroflicha bo‘lsada, qimmatli ma’lumotlar bergen holda o‘zimizning qiziqarli, serqirra tariximizni mavjud ekanligiga guvoh bo‘ldik.

Xitoyda sulolaviy solnomalar odatda sulolaning hukmronligi nihoyasiga yetgandan keyin, o‘sha davrda to‘plangan materiallar asosida yozilgan. Eng avvalo, bular saroyda yuritilgan yilnomalar, diplomatik missiyalar va harbiy yurishlar to‘g‘risidagi hisobotlar, Xitoyga tashrif buyurgan xorijiy elchiliklar to‘g‘risidagi xabarlar, imperator nomiga yozilgan ariza va hisobotlar, hukmdorning farmoyishlari va boshqa hujjatlardan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1.Ahmedov B. A. O’zbekiston tarixi manbalari. Toshkent. 2001.
- 2.Arslonzoda R. A. Manbashunoslik. Farg’ona 2022.
- 3.Doniyorov A.X., Bo’riyev O. B., Ashirov A. A. Markaziy Osiyo xalqlari etnologiyasi. Toshkent. 2020.
- 4.Madraimov A., Fuzailova G. Manbashunoslik. Toshkent. 2008.
- 5.Sa’dullayev A. S. Qadimgi O’zbekiston tarixi manbalaridan. Toshkent. 1996.
- 6.Xo’jayev A. Farg’ona tarixiga oid ma’lumotlar (Qadimiy va ilk o’rta asr xitoy manbalaridan tarjimalar va ularga sharhlar). Farg’ona. 2013.
7. www.wikipedia.uz. internet sayti.